

O‘SMIRLIK DAVRI INQIROZLARIDA XAVFSIZ OILAVIY MUHITNING O‘RNI

*Qo‘qon universiteti Ta‘lim fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi*

Maxkamova Masturaxon Baxromjon qizi

masturahon2390@gmail.com

Psixologiya 1-21 guruh talabasi

Muhammadova Dildoraxon Abdubanno qizi

muxammadovadildora544@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishda o‘smirlik davri oilaviy muhit va oilaviy munosabatlarning bolalarning xulq-atvoriga ta‘siri o‘rganiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitning barqarorligi va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar bolalarning psixologik rivojlanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Maqolada turli oilaviy sharoitlar va tarbiya usullarining bolalar xulqiga qanday ta‘sir etishi ko‘rib chiqiladi va ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ta‘siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: oilaviy muhit, oilaviy munosabatlar, bola xulqi, tarbiya usullari, psixologik rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, emotsional rivojlanish, ota-ona roli, nizoli oilalar, bola tarbiyasi.

Oila –asrlar davomida shakllanib kelgan jamiyatning mustahkam poydevori, jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi qudratli maskan. Jamiyatning har tomonlama farovonligi oilaning mustahkamligi, tinchligi va xotirjamligiga bog‘liq. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma‘naviy – ma‘rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”.¹ Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan ushbu fikrlar jamiyatimizda davlatimiz rivoji uchun oilaning, oilada farzand tarbiyasi sog‘lom oilaviy muhit yaratish bugungi kunning eng ahamiyatli bo‘lgan masalalaridan ekanligidan dalolat beradi. Oiladagi sog‘lom muhit esa farzandlarni barkamol etib tarbiyalashda muhim – sog‘lom mafkuraning o‘rnini ko‘rsatib beradi. Umuman olganda, mamlakatimizda sog‘lom oilaviy barqaror muhitni shakllantirish va oilada yuksak ma‘naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik muhitni qaror toptirish uchun farzandlarimizning ta‘lim- tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, oilalar mustahkamligini va manfaatlarini ta‘minlash, sog‘lom farzand o‘stirish, tarbiyalash va ularni voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

¹ Мирзиёев Ш. М. Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.43.

Davlatimizda oila va farzand munosabatlariga katta ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Qabul qilingan ko'plab qaror va qonunlar so'zimizning yaqqol isbotidir. Davlatimiz asosiy qonuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi. Oila, bolalar va yoshlarga bag'ishlangan bo'lib Konstitutsiyaning 76-moddasida Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi² deya belgilab berilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 4-modda. Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi deb nomlanib, O'zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. O'zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir. Mazkur qonunning IV bo'lim. Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari 65-modda. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi deb nomalanadi. "Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir."³ 2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra "So'nggi yillarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish"⁴ belgilab berildi. Davlatimizning asosiy qonunlarida oila, farzand tarbiyasi, sog'lom oilaviy muhit, ota-ona va farzand munosabatlari belgilab berilgani mavzuning ahamiyatini o'zida aks ettiradi. Oilaviy muhit va oilaviy munosabatlar xususan bola tarbiyasi bola shaxsiyati va xulq-atvorini shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", – deydi donishmandlar. Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023 Manba: <https://lex.uz/docs/-6445145>

³ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 4- moddasi, IV bo'lim. ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari 11-bob. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari 65-moddalari. Manba: <https://lex.uz/mact/-104720>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. 03.01.2025 yildagi PQ-1-son Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-7330260>

asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'mi, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. **G'.G'oziyev** tomonidan shaxsda mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalari o'rganilgan bo'lib, muallifning fikricha, ijodiy fikrlash quyidagi xususiyatlari bilan boshqa fikr yuritish jarayonlaridan muayyan darajada ajralib turadi: mazmundorligi, mantiqiylik, umumiylik, dinamiklik, qamrovlilik, noma'lumga intiluvchanlik, yechimda nostandartlik, yig'iqlik, yoyiqlik, originallik, haqchillik, izchillik, bosqichma-bosqichlik, to'g'ri va teskari yo'nalganlik, uzluksizlik va h.k.⁵ **F.I.Haydarov rahbarligida N.I.Xalilova** tomonidan «O'smirlik davrida o'zini o'zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari» mavzuidagi ilmiy tadqiqoti ham e'tiborga molik. ⁶Tadqiqotlarda aniqlanishicha, o'smirlik davrida mustaqil fikr, mustahkam e'tiqod va dunyoqarash shakllanganligi ularda axloq sohasida o'zini o'zi nazorat qilishning rivojlanishiga olib keladi va bu ko'proq ijtimoiy xulq-atvorlar, munosabatlarda, o'zini tuta bilish hamda javobgarlikni his qilish, mustaqillikka intilish, axloqiy qarashlarning kengayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. **Xulosa:** O'smirlik davri inson hayotidagi eng muhim, ayni paytda inqirozli bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda shaxsiyat shakllanishi, mustaqil fikrlar va his-tuyg'ularning kuchayishi bilan birga, tashqi omillarga, xususan, oilaviy muhitga nisbatan sezuvchanlik ortadi. O'smirlik davri — bu nafaqat jismoniy o'sish, balki ma'naviy va ruhiy shakllanish davridir. Ushbu bosqichda to'g'ri va ongli tarbiya, ayniqsa oilaviy tarbiya hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, o'z farzandiga mehr, e'tibor va ishonch bilan yondashadigan, emotsional xavfsizlikni ta'minlay oladigan oilalarda tarbiyalangan o'smirlar o'zini yuqori baholaydi, ichki bezovtalik darajasi past, moslashuvchan va ochiq shaxslar bo'lib shakllanadi. Bu shuni anglatadiki, sog'lom tarbiyaning asosi — bu bolaga o'zini qadrlashni, his-tuyg'ularini ifoda eta olishni, fikrini erkin bildirishni o'rgatadigan muhitni yaratishdir. Oila — bu tarbiyaning birinchi va eng muhim maktabi bo'lib, u yerda bola hayotga bo'lgan munosabatini, o'ziga va boshqalarga nisbatan ishonchni shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davridagi inqirozli holatlarning ildizida ko'pincha noto'g'ri yoki befarq tarbiya yotadi. Aksincha, maqsadli, mehrli va qadriyatlarga asoslangan tarbiya esa o'smirlarning ichki dunyosini barqarorlashtiradi, ularni sog'lom, ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazadi.

Takliflar- Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, oilaviy muhit va munosabatlarni yaxshilash uchun bir qator tavsiyalar berilishi mumkin.

⁵ G'oziyev E. Umumiy psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010. - 548 b.

⁶ Xalilova N.I. O'smirlik davrida o'zini-o'zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari. -T.: TDPU.2010.- 24 b.

•Ota- onalar uchun psixologik treninglar tashkil etish ota-onalarga o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari haqida bilim berish, emotsional qo‘llab quvvatlovchi muhitini yaratish bo‘yicha amaliy treninglar tashkil etish.

•Ijtimoiy psixologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish maktab va mahallalarda o‘smirlarning ruhiy holatini muntazam baholab boruvchi tizim joriy etilishi, xavfli oilaviy muhitda yashovchi o‘smirlar bilan individual ishlashni kuchaytirish.

•Mediatsiya markazlarini kengaytirish oilaviy nizolarni bartaraf etish va ota-ona-o‘smir o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash uchun mahalliy darajadagi mediatsiya markazlarining faoliyatini kengaytirish.

•Maktab va ota-onalar hamkorlikda bolalar psixologik holatini kuzatib borishlari va ularning rivojlanishiga to‘siq bo‘ladigan omillarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishlari kerak ya’ni maktab psixologlari uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish o‘smirlarning oilaviy muhitga nisbatan sezgirliklarini hisobga olgan holda, maktab psixologlari uchun xavfsiz muhit yaratish va stresni kamaytirish bo‘yicha psixokorreksion dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

•ota-onalar bolaga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratishlari, ularning fikrini tinglashlari, ularni qo‘llab-quvvatlashlari va o‘zaro hurmat asosida munosabatlar o‘rnatishlari kerak.

•oiladagi nizoli vaziyatlarni kamaytirish, muammolarni murosali hal qilish, bolalarni mustaqil fikrlashga va o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etishga o‘rgatish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
3. Beruniy A. R. Minerologiya. – Toshkent: Fan, 1966. – 10 b.
4. Davletshin M. G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2004. – 280 b.
5. Эльконин Д. Б. Избранные психологические труды: Проблемы возрастной и педагогической психологии / ред. Д. И. Фельдштейн. – М.: МПА, 1995. – 560 с.
6. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: Ma’naviyat, 2000. – 88 b.
7. Karimova O. Oila huquqi asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2013. – 168 b.
8. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. – 440 b.
9. Maxkamova, M., Khalmamatova, L., Aripova, N., & Turdibekova, R. (2023). PROBLEMS OF TEACHING UZBEK LANGUAGE IN RUSSIAN GROUPS OF NONPHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Science and innovation*, 2(B1), 379-381.
10. Siddikov, B. S., & Mahkamova, M. B. (2022). Ways to develop the professional qualities of future teachers. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 966-972.